

VAKILLIK VA ISHONCHNOMA INSTITUTINING NAZARIY VA
AMALIY JIHATLARI

Ernazarova Gavhar Ravshan qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

ernazarovagavhar228@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali fuqarolik huquqidagi ishonchnoma va vakillik institutlarining mazmun-mohiyati, tarixiy rivojlanishi, huquqiy asoslari hamda ularning amaliyotda qo'llanilishi yoritilgan. Tadqiqot davomida vakillikning turlari, subyektlari, vakolat doirasi va ishonchnoma turlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qonunchilikdagi mavjud asoslar hamda ushbu institutlarning huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *vakillik, ishonchnoma, fuqarolik huquqi, huquqiy munosabat, vakolat, qonuniy vakillik, shartnomaviy vakillik*

Аннотация: *В данной статье раскрываются содержание и сущность института доверенности и представительства в гражданском праве, их историческое развитие, правовые основы, а также практика применения. В процессе исследования анализируются виды представительства, его субъекты, объем полномочий и виды доверенностей. Кроме того, рассматриваются действующие законодательные основы и роль указанных институтов в развитии правовой культуры.*

Ключевые слова: *представительство, доверенность, гражданское право, правовое отношение, полномочия, законное представительство, договорное представительство.*

Abstract: *This article examines the nature and essence of the power of attorney and the institution of representation in civil law, their historical development, legal foundations, and practical application. The study analyzes the types of representation, its subjects, the scope of authority, and the types of powers of attorney. In addition, the article explores the current legislative framework and the role of these institutions in the development of legal culture.*

Keywords: *representation, power of attorney, civil law, legal relationship, authority, legal representation, contractual representation.*



KIRISH

Ba’zida shunday holatlar yuz beradi-ki unda fuqaro bevosita ishtirok eta olmaydi, shunday vaziyatlarda bugungi kunda fuqarolar va yuridik shaxslar ko’plab huquqiy munosabatlarda o’zlari ishtirok etish o’rniga, o’z vakillari orqali harakat qilishadi. Va ba’zi vaziyatlarda shaxslar o’z huquq va majburiyatlarini bevosita o’zlari amalga oshir olmay qoladi. Bunaqa vaziyatlarda vakillik institutining mavjudlihi katta ahamiyat kasb etadi. Vakillik – bu bir shaxs (vakil) boshqa shaxs (vakillik beruvchi) nomidan va uning topshirig’i asosida huquqiy harakatlarni amalga oshiradigan huquqiy institutdir. Vakillik instituti orqali yuridik va jismoniy shaxslar o’z huquq va majburiyatlarini bevosita ishtirok etmasdan turib amalga ishiritishlari mumkin. Vakillik tushunchasi ko’p hollarda bevosita inson tomonidan qo’llaniladi, ayniqsa bitimlar tuzishda, sudda ishtirok etishda va boshqa huquqiy harakatlarda. Vakillarning xizmatiga fuqarolar va ayni damda yuridik shaxslar ham muhtoj bo’ladilar. Shu sababli insonchilik, qonun, sud qarori va davlat organining hujjati asosan vujudga keluvchi vakillik institutining vazifasi vakolat beruvchi nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltirish, o’zgartirish va bekor qilishdan iboratdir.

Vakillik instituti huquqiy munosabatlarning uzluksiz va samarali amalga oshishiga xizmat qiladi. Ushbu institutning mohiyati, shakllari, huquqiy asoslari va amaliyotda qo’llanilishi fuqareolik huquqining rivojlanishida muhim o’rin egallaydi. Xususan, fuqarolik muamolasida bitimlarning yasalihi, sud ishlarida ishtirok etish, mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda vakillik keng qo’llaniladi. Vakillik institutining nazariy va amaliy jihatlarini o’rganish, mavjud muammolarni aniqlash va isloh qilish shu boisdan ham muhim hisoblanadi.

METODLAR

Maqola O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, boshqa normative huquqiy hujjatlar va huquqshunos olimlarning ilmiy ishlari asosida tayyorlandi. Tahlil jarayonida huquqiy-normativ tahlil, tarixiy yondashuv metodlaridan foydalanilib yoritildi.

Vakillik bu kecha yoki bugun vujudga kelgan institut emas, balki insoniyat rivojlanishining barcha davrlarida muayyan shaklda rivojlanib kelgan, ayniqsa, qadimgi Misr, Chin, Yunon va Rim davlatlarida savdo va hunarmandchilik faoliyatida undan keng foydalanilgan. Qadimgi Rimda vakillik asosan topshiriq shartnomasi ko’rinishida vujudga kelgan. Bunda bir taraf (mandant) topshiriq berishi va ikkinchi tomon (mandatariy) uning vakili sifatida topshiriqni bajarishni o’z zimmasiga olishi lozim bo’lgan. Vakillik predmeti sifatida yuridik harakatlar ham, faktik tusdagi xizmatlar ham e’tirof etilgan. Vakillik



keyinchalik XVIII-XIX asrlarga kelib ancha takomillashtirildi va ayrim o'zgarishlar bilan huququiy jihatdan hozirgi kundagi shaklga keltirildi. Vakillik so'zining o'zi (ingliz. representation) – bir shaxs o'zida mavjud bo'lgan vakolat asosida boshqa shaxs nomidan, uning uchun bevosita huquqlarni vujudga keltirish (o'zgartirish, tugatish) yo'li bilan harakat qiladigan munosabatdir.

Vakillik deb, bir shaxsning ikkinchi shaxs nomidan yuridik harakatlarni amalga oshirishiga ayatiladi. Ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs vakil tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi (FKning 129-moddasi).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi nafaqat fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi, shu bilan bir qatorda ularni amalga oshirish kafolatlarini ham o'zida belgilaydi. Mazkur kafolatlarning eng muhimi bu fuqarolarning sud orqali himoyalanih huquqidir. Basharti, Bosh Qomusimiz bo'lmish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 55-moddasida Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi belgilangan. O'z navbatida, fuqarolar uchun malakali yordam turli shakllarda berilishi mumkin va ushbu shaklning muhim biri aynan fuqarolik sud ishlarini yuritishdagi vakillik hisoblanadi. Suddagi vakillikning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunish maqsadida.

Sh.Sh.Shorahmetovning fikricha, sudda vakillik – manfaatdor shaxs nomidan yoki qonunda nazarda tutilgan barcha asoslar bo'yicha protsessual harakatlarni amalga oshirishdir.

Z.N.Esanova esa vakillik deb fukarolik ishlarini sud va boshqa organlarda yuritishda qonunda belgilangan tartibda bir shaxsning topshirig'iga ko'ra ikkinchi shaxsning uning nomidan ishda qatnashuviga yoki o'z tashabbusiga ko'ra yoxud qonunda ko'rsatilgan asoslarga muvofiq mustaqil, malakali va sifatli yuridik yordam ko'rsatishiga aytiladi, degan fikrni ilgari suradi.

M.I.Mixaylova vakillikni sud va vakil o'rtasidagi vakillik munosabatlarini huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi huquqiy normalar yig'indisi deb belgilaydi.

V.S.Lisnevskiy vakillik - bu vakil va sud o'rtasidagi munosabatlar, bunda vakil o'z vakilining manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi, deb ta'kidlaydi.



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib fuqarolik protsessidagi vakilga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Vakil – fuqarolik ishlari bo’yicha qonunda belgilangan asoslarga ko’ra yoki ishonch bildiruvchi shaxsning (taraflar, uchinchi shaxslar, arizachi va boshqa manfaatdor shaxslarning) topshirig’iga asosan o’z nomidan uning manfaatlarini himoya qiluvchi va ishonch bildiruvchi shaxsning manfaatida harakat qiluvchi shaxs.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida vakillik instituti shaxslarning huquq va burchlarini amalga oshirishlari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o’rni quydagi holatlarda ko’rinadi.

-Jamiyatdagi subyektlarning huquq va majburiyatlarini o’z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlaydi;

-shaxslarning o’z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

-shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklarini buzilishining oldini oladi;

-subyektlar o’rtasida o’zaro huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlash va boshqa vaziyfalarini bajarishi bilan jamiyat taraqqiyotida muhim hisoblanadi.

NATIJALAR

Hozirgi kunda qonunchiligimizda fuqarolik protsessida vakillikning ikkita turi mavjud :

- 1) qonuniy vakillik;
- 2) shartnoma bo’yicha (ixtiyoriy) vakillik.

Qonuniy vakillik – muomala layoqatiga ega bo’lmagan yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) himoya qilishidir.

Ixtiyoriy vakillik esa ishonch bildiruvchi o’z huquqlari va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo’yicha sudda ish yuritishni shartnoma bo’yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan vakilga topshirishi hisoblanadi. Quyidagilar ixtiyoriy vakil sifatida sudda ishtirok etishi mumkin:

- 1) advokatlar;
- 2) nasl-nasab shajarasi bo’yicha to’g’ri tutashgan yoki yon shajara bo’yicha qarindoshlar, shuningdek er (xotin) yoxud uning qarindoshlari;
- 3) yuridik shaxslarning xodimlari — shu yuridik shaxslarning ishlari bo’yicha;
- 4) notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari — shu tashkilotlar a’zolarining ishlari bo’yicha;
- 5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari;



6) birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa birgalikdagi ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha;

7) ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'yilgan shaxslaruning tushunchasini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Vakillik qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra vujudga kelgan holda quyidagi shaxslar o'rtasida amalga oshiriladi:

- jismoniy shaxsning jismoniy shaxsga yoki yuridik shaxsga nisbatan vakilligi;

- yuridik shaxsning jismoniy shaxsga yoki yuridik shaxsga nisbatan vakilligi; davlatning jismoniy shaxsga yoki yuridik shaxsga vakilligi.

Bu vakillikning mazmun-mohiyati, amalga oshirish usuli, shakli, ularning turlarga bo'linishida va vakillik subyektlarining huquqiy maqomini belgilashida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun vakillik institutining eng muhim jihatlaridan biri – uning subyektlari hisoblanib, ular vakolat beruvchi – bu har qanday shaxs, ayni vaqtda davlat bo'lishi ham mumkin.

Vakil o'zida bo'lgan vakolatga binoan, o'zini vakil qiluvchiga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi. Binobarin, vakolat deb vakilning boshqa nomidan muayyan yuridik harakatlar qilishga va shu bilan u uchun huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishga qaratilgan huquq tushuniladi. Vakillikni quyidagi turlari mavjud:

- Umumiy vakillik – bosh ishonchnomaga asoslanadi. Umumiy vakolatlar asosida ish olib boruvchi vakil vakolat beruvchi nomidan muayyan munosabatlarda qonunda belgilangan hollardan tashqari, barcha yuridik xatti-harakatlarni amalga oshirishga haqli bo'ladi

- Maxsus vakillik – vakil ishonchnoma yoki shartnomada ko'rsatilgan xatti-harakatlarnigina amalga oshira oladi, ya'ni vakilning vakolatlari bir muncha cheklangan bo'ladi.

- Jamoat vakilligi – jamoat birlashmalari o'z a'zolarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan vakilligi.

- Ma'muriy aktiga asoslangan vakillik – vakillikning ushbu turiga muvofiq, ma'muriy tartibda tayinlangan vakil vakolat beruvchining nomidan harakat qilish majburiyatini oladi.

- Shartnomaviy vakillik – vakillik vujudga kelishi taraflarning o'z erki, xohish-istagi asosida o'zaro kelishuviga muvofiq belgilanadi.

- Qonuniy vakillik – vakolat beruvchining erkiga bog'liq bo'lmagan holda normativ hujjatlar asosida vakilga berilgan vakolatlardan kelib chiqadigan vakillik hisoblanadi. Shu bilan birga koma yoki letargik uyqu (uzoq vaqt behush holatda yotish) holatidagi shaxsning “muomalaga layoqatini to'xtatib



turish” tufayli vaqtinchalik vakil tayinlanishi lozim, bu ham qonuniy vakillikning bir turi sifatida e’tirof etiladi.

Vakil o’z vakolatini vakolat beruvchining manfaatlarini ko’zlabgina amakga oshirishi lozim. Binobarin, vakil o’ziga vakolat bergan shaxs nomidan, shaxsan o’ziga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas – tijorat vakilligi bo’lgan hollar budan mustasno. (FKning 129-moddasi 3-bandi).

FK muomalaga layoqatli shaxslar nomidan vakillik qilishni muomalaga layoqatsiz shaxslar nomidan vakillik qilishdan farqlaydi. Muomalaga layoqatli shaxslar vakillarini o’z erklaridan kelib chiqib belgilaydilar. Muomalaga layoqatsiz shaxslar nomidan vakillik esa qonun asosida belgilanadi va ular nomidan vakil sifatida ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiy va homiylar harakat qiladi.

FKning 132-moddasida ko’rsatilganidek, boshqa shaxs nomidan tuzilgan yoki vakolatlaridan tashqari chiqib tuzilgan bitim vakolat bergan shaxs keyinchalik ma’qullangan taqdirdagina, uning uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o’zgartiradi va bekor qiladi. Bitim tuzishga vakolat bergan shaxs bitimning ijroga qabul qilinadigan guvohlik beruvchi harakatlar qilgan holda ham, bunday bitim ma’qullangan hisoblanadi.

Ishonchnoma – bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakil) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun beradigan yozga vakolatga nisbatan aytiladi. (FKning 134-moddasi) ishonchli vakil o’ziga berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek, yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (nizomida) ko’rsatilga faoliyat maqsadlariga zid bo’lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin (FKning 134-moddasi 2- bandi).

Ishonchnoma bir shaxs, shuningdek bir necha shaxslar nomidan bir yoki bir necha shaxslar nomiga ham berilishi mumkin. Masalan, uy-joy qurish kooperativining vakili kooperativ a’zolarining barchasi tomonidan yoki umumiy majlisning vakolatiga binoan, bir necha shaxs tomonidan imzolangan ishonchnoma olishi mumkin.

Har bir davlatda fuqarolar biror bir muassasada ish yuritadi va shu orqali ijtimoiy munosabatga kirishadi. O’zbekiston respublikasida barcha fuqarolar o’zlari xohlagan tartibda bir shaxsga nisbatadan ishonchnomani rasmiylashtirishi mumkin. Ishonchnoma tushunchasi tarixan rivojlanib kelgan hisoblanadi. Bizning yurtimizda barcha shaxslar o’zlari xohlagan tartibda barcha sohalarida ishonchnoma rasmiylashtirishi mumkin. Fuqarolik kodeksining bir bo’limi albatta ishonchnomaga ajratilganligi ham biz uchun buning muhimligini anglatadi. Shunday ekan ishonchnomani bir kichik hodisa



deb qarash albatta noto'g'ri bo'ladi deb o'ylayman. Ishonchnomani quyidagi turlarga ajratish mumkin: umumiy, maxsus va bir martalik ishonchnomalar. Umumiy ishonchnomada turli bitimlarni tuzish yoki boshqa yuridik harakatlar amalga oshirish, masalan, yuridik va jismoniy shaxslarning filiallarini idora etish yoki fuqaroga tegishli transport vositasini boshqarish uchun berilgan vakolat ko'rsatiladi. Maxsus ishonchnoma faqat muayyan sohada bitimlar tuzish yoki yuridik harakatlarni sodir etish imkonini beradi. Masalan, transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha mijoz bergan ishonchnomada ekspeditorga faqat shartnomaviy munosabat doirasida eksport yoki import uchun talab qilinadigan hujjatlarni olish, bojxona rasmiyatchiliklari yoki o'zga rasmiyatchiliklarni bajarish, yukning miqdori va holatini tekshirish, uni ortish va tushirish, mijoz zimmasiga yuklatiladigan bojlar, yig'imlar va boshqa xarajatlarni to'lash, yukni saqlash, manzilda olish kabi yukni yetkazib berish uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bitimlar tuzishi uchun vakolat berilishi mumkin. Bir martalik ishonchnoma faqat bir bitim yoki yuridik harakat sodir etish uchun beriladi va uning bajarilishi orqali ishonchnoma o'z kuchini yo'qotadi. Masalan, bir oylik maosh, pochtdan xat yoki jo'natmani olish bo'yicha berilgan ishonchnoma uning olinishi orqali bekor bo'ladi. Ishonchnomada uning qachon berilganligi ko'rsatilishi lozim, aks holda, u haqiqiy sanalmaydi. Ishonchnoma ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas.

Ishonchnoma bekor bo'lishi ham mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 141-moddasiga asosan, ishonchnomaning amal qilishi quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

- 1) ishonchnoma muddatining tamom bo'lishi;
- 2) ishonchnoma bergan shaxsning uni bekor qilishi;
- 3) ishonchnoma berilgan shaxsning bosh tortishi;
- 4) nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to'xtatilishi;
- 5) nomiga ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to'xtatilishi;
- 6) ishonchnoma bergan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi, yoxud uning vafot etishi;
- 7) ishonchnoma olgan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomalaga layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi, yoxud uning vafot etishi. Ishonchnoma bergan shaxs istagan vaqtda ishonchnomani bekor qilishi, ishonchnoma berilgan shaxs esa — undan voz kechishi mumkin. Bu huquqdan



vos kechish haqidagi bitim haqiqiy emas. Ishonchnomaning amal qilishi bekor bo'lishi bilan uni boshqa shaxsga o'tkazish ham o'z kuchini yo'qotadi.

Ishonchnoma bergan shaxs uning bekor bo'lganligi haqida ishonchnoma olgan shaxsni, shuningdek ishonchnoma qaratilgan o'ziga ma'lum uchinchi shaxslarni ham xabardor qilishi shart. Ishonchnoma ushbu Kodeks 141-moddasi birinchi qismining 4-7-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha bekor qilingan hollarda ishonchnoma bergan shaxsning huquqiy vorislari zimmasiga ham shunday vazifa yuklatiladi.

Ishonchnoma bekor qilinganidan so'ng vakolat olgan shaxs tomonidab qilingan harakatlar to'risida FKning 142-144- moddalarida mulkning yo'qolishi yoki zaralanishi sabali ko'rilgan ziyonlarini jabrlanuvchiga to'laydi. Ishonchnomaning bekor qilinganligini bilguniga yoki bilishi lozim bo'lguniga qadar ishonchnoma bergan shaxs tomonidan uchinchi shaxslarga nisbatan qilingan harakatlar vakolatnoma beruvchi uchun yoki uning huquqlarini oluvchilar uchun o'z kuchini saqlab qoladi.

MUHOKAMA

Vakillik va ishonchnoma institutlari amaliyotda huquqiy jarayonlarni yengillashtiradi, shaxslarning huquqini himoya qiladi va huquqiy madaniyatni oshiradi. Yangi texnologiyalar davrida electron ishonchnomalar tizimini rivojlantirish, notarial tartibni soddalashtirish va xalaqaro tajribalarni qo'llash ularning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf qilish va amaliyotda uchraydigan muammolarni hal etish ham muhim vazifadir.

Fuqarolik huquqida vakillik va ishonchnoma institutlari shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, huquqiy munosabatlarni soddalashtirish va samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu institutlar va huquqlar yordamida shaxslar o'z huquq va majburiyatlarini bevosita emas vakil orqali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa fuqarolik muomalasi uzluksiz hamda turli yo'llar bilan amalga oshirishda muhim vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot va izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadi-ki, vakillik institutining mohiyati – bir shaxs boshqa shaxs nomida huquqiy harakatlarni amalga oshirishda yotadi. Vakillik institutining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida belgilab ketilgan bo'lib, u orqali vakilning vakolatlari, ularni amalga oshirish doirasi, vakillikning tugash va boshqa asoslari va bundan tashqari boshqa masalalar tartibga solibadi.

Shuningdek, vakillikni huquqiy jihatdan rasmiylashtiruvchu hujjat bu – ishonchnomadir. Ishonchnoma fuqarolik muomalasi soirasida ishtirok



etuvchilar o'rtasida tuziladigan va aniq vakolarlari belgilab o'tilgan hujjat hisoblanib, uning fuqarolik muomalasini amalga oshirishda o'rni kattadir.

XULOSA

Vakillik va ishonchnoma institutlari fuqarolik huquqining ajralmas qismi bo'lib, shaxslarning huquqlarini bevosita himoya qilish imkonini beradi. Ularni yanada rivojlantirish, xalqaro tajribalarni joriy etish va huquqiy savodxonlikni yanada oshirish zamonaviy huquqiy tizim uchun zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, vakillik va ishonchnoma institutlari nafaqat fuqarolik huquqining, balki jamiyatning huquqiy madaniyatini ham rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababi ham yuqoridagi institutlarni rivojlantirish, ularning ahamiyatini o'rgatish, takomillashtirish, ularni huquqiy amaliyotda to'g'ri qo'llash bugungi kunda muhim hisoblanadi. Kelgusida bu yo'nalishdagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, xalqaro tajribalardan foydalanish, notarial tartib va elektron ishonchnomalar tizimini kengaytirish hamda huquqiy savodxonlikni oshirish vakillik va ishonchnoma institutlarining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent; 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
<https://lex.uz/mact/-111189>
3. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. – T.TDYU nashriyoti, 2017. – 311 bet.
4. Muxtorov , M. (2024). FUQAROLIK PROTSESSIDA VAKILLIK MUNOSABATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. "Science Shine" International Scientific Journal, 17(1). извлечено от <https://scienceshine.uz/index.php/ilmnuri/article/view/450>
5. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/download/3974/5194/6718>
6. <https://advice.uz/oz/documents/1981>
7. <https://kuzatuvchi.uz/siyosiy/705-ishonchnomaning-bekor-bolish-asoslariva-bu-haqida-shaxslarga-xabar-berish.html>
8. <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/download/23417/15454/22170>

